



THE STATE AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF ESG REPORTING IN UZBEKISTAN'S CORPORATE SECTOR

Rustam Gulyamov

Graduate School of Business and Entrepreneurship
Head of the Project Office for the Promotion and Implementation
of the Green Economy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18081849>

ARTICLE INFO

Received: 22nd December 2025

Accepted: 28th December 2025

Online: 29th December 2025

KEYWORDS

ESG reporting, sustainable
development, corporate
governance, non-financial
reporting, international
standards, GRI, IFRS S1/S2,
ESRS, CSRD.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the current state and development prospects of ESG (Environmental, Social, Governance) reporting in Uzbekistan's corporate sector. The study examines institutional and regulatory frameworks shaping ESG practices and assesses the alignment of national reporting approaches with international standards such as GRI, IFRS S1/S2, and ESRS. Through a comparative analysis of state-owned and private enterprises, key drivers and constraints affecting the quality and diffusion of non-financial reporting are identified. The findings indicate that despite recent regulatory progress, ESG reporting maturity remains limited and requires systematic improvements in governance structures, data management, and professional capacity. The paper concludes with practical recommendations aimed at enhancing transparency, strengthening investor confidence, and supporting sustainable economic development in Uzbekistan.

O'ZBEKISTON KORPORATIV SEKTORIDA ESG HISOBOTLARINING HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Rustam Gulyamov

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Yashil iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish loyiha ofisi rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18081849>

ARTICLE INFO

Received: 20th December 2025

Accepted: 26th December 2025

Online: 27th December 2025

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston korporativ sektorida ESG (Environmental, Social, Governance) hisobotlarining joriy holati, institutsional rivojlanish darajasi va istiqbollari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro standartlar (GRI, IFRS S1/S2, ESRS) bilan milliy amaliyot o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, davlat va xususiy sektor kesimida ESG



KEYWORDS

ESG hisobotlari, barqaror rivojlanish, korporativ boshqaruv, nomoliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, GRI, IFRS S1/S2, ESRS, CSRD.

hisobotdorligining shakllanish jarayoni solishtirma tahlil asosida baholanadi. Empirik ma'lumotlar va so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida O'zbekistonda ESG hisobdorligining asosiy drayverlari va mavjud institutsional cheklovlari aniqlanadi. Xulosa qismida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlash nuqtai nazaridan ESG hisobotlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kirish: ESG tushunchasi va ahamiyati

ESG (Environmental, Social, Governance) – kompaniyalarning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy mas'uliyati va korporativ boshqaruv amaliyotini baholash mezonidir. U biznesning ekologik barqarorligi, jamiyat oldidagi mas'uliyati va samarali boshqaruv tamoyillarini qamrab oladi. Hozirda jahon miqyosida yirik investorlar va manfaatdor tomonlar korxonalar nafaqat moliyaviy natijalarini, balki ularning ekologik va ijtimoiy ta'siri hamda boshqaruv sifati qanday ekanini oshkor qilishini talab qilmoqda. Misol uchun, dunyoning eng yirik kompaniyalarining 77% o'z barqarorlik faoliyatini Global Reporting Initiative (GRI) standartlari asosida e'lon qiladi [2].


Umuman olganda, moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni oshkor etish ixtiyoriy tavsiyalardan bosqichma-bosqich majburiy talablar darajasiga ko'tarilmoqda. Bu o'zgarishlar fonida ESG ko'rsatkichlari biznesning uzoq muddatli muvaffaqiyati, obro'si va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatining muhim omiliga aylanmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ESG prinsiplari joriy etilgan kompaniyalarda potentsial xavflar kamayib, moliyaviy barqarorlik va daromadlilik oshadi [2][5]. KPMG tahliliga ko'ra, ESG tamoyillarini korporativ strategiyaga integratsiya qilish kompaniya qiymatini bir necha yo'nalishda oshirishi mumkin. Xuddi shuningdek, ESGga amal qiluvchi kompaniyalar bozor tebranishlariga chidamliroq bo'lib, operatsion samaradorlikni yuqori ushlab turadi va manfaatdor tomonlar (investorlar, mijozlar va jamiyat) ishonchini qozonadi. Shu sababli ESG oddiy korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasidan chiqib, korxona uchun uzoq muddatli raqobatdosh ustunlik va barqaror rivojlanish garoviga aylandi. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2023-yildan kuchga kirgan Korporativ barqarorlik hisobotlari to'g'risidagi Direktivada (CSRD) yirik kompaniyalarga ESG ma'lumotlarini majburiy ravishda oshkor etish talabi joriy etildi[20]. Bu talab nafaqat Yevropadagi shirkatlarga, balki ular bilan ishlovchi xorijiy hamkorlarga ham taalluqli – natijada, Yevropaga mahsulot eksport qiluvchi O'zbekiston korxonalari ham mazkur talablarga mos ravishda ESG ko'rsatkichlarini taqdim etishga majbur bo'lmoqda[4]. Demak, bugungi kunda ESG hisobotlari kompaniyaning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi, ochiqligi va barqaror rivojlanishga sodiqligining muhim belgisi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ESG hisobotlarining joriy holati

O'zbekistonda korporativ ESG amaliyotlari endigina shakllanmoqda, biroq so'nggi yillarda ijobiy o'sish kuzatilmoqda. Misol uchun, KPMG va "UzAssets" AJ tomonidan olib

borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirda ulardan 53% (16 ta kompaniya) o'z yillik hisobotlarini rasmiy veb-saytlarida e'lon qilmoqda. Shundan, atigi 10 ta kompaniya (taxminan 33%) xalqaro standartlar talablarini qisman bo'lsa-da inobatga olgan holda hisobotlarni tayyorlamoqda [3][4]. Biroq, hozircha birorta mahalliy kompaniya IFRS S1 va S2 (barqarorlik bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) talablari asosida hisobotlarni e'lon qilmagan, ayrim kompaniyalar esa SASB mezonlaridan foydalana boshlagan (taxminan 40%) [4][5]. 2025-yil 9 oy natijalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki 17 ta kompaniya 2024-yil uchun nomoliyaviy hisobotlarni ommaviy e'lon qildilar [4].




1-rasm. O'zbekistonda nomoliyaviy hisobotlarni ochiqlash dinamikasi [3]

Ta'kidlash joizki, so'nggi ikki yil ichida ESG hisobotini chop etayotgan korxonalar soni jadal o'smoqda. 2022-yil yakunida bunday hisobot e'lon qilgan kompaniyalar soni avvalgi yilga nisbatan 80% ga oshgan bo'lsa, 2023-yilda yana 78% ga o'sdi (1-rasm). Biroq miqdoriy o'sishga qaramay, sifat borasida muammolar mavjudligicha qolmoqda. KPMG tahliliga qaraganda, ko'plab kompaniyalarda ESG ma'lumotlarini muntazam yig'ish va integratsiyalash tizimi yo'lga qo'yilmagan, barqarorlik bo'yicha maxsus ko'rsatkichlar (KPI) joriy etilmagan, ichki hisobot standartlari va siyosat hujjatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Hozircha atigi 2 ta kompaniya o'z barqarorlik hisobotini mustaqil tashqi auditdan o'tkazgan xolos, va bor-yo'g'i 5 ta kompaniya ketma-ket ikki yil yoki undan ziyod vaqt davomida muntazam ESG hisobotini e'lon qilmoqda [2][4][5]. Bu raqamlar O'zbekistonda korporativ barqarorlik hisobotlari tizimi endigina shakllanayotganini va umuman olganda, hali yetuklik darajasi pastligini anglatadi.

ESG tamoyillarini amaliyotga tatbiq etilishi borasida ham sezilarli tafovut mavjud. PwC tomonidan Evroosiyo mintaqasida o'tkazilgan so'rov natijalari bunga misol bo'la oladi. So'rovnoma ko'ra O'zbekistondagi kompaniyalarning taxminan 46% ESG trendlarining o'z biznesiga ta'sirini yaxshi tushunishini bildirgan xolos [1]. Solishtirish uchun, qo'shni Qozog'istonda bu ko'rsatkich 76% ni tashkil etgan (2-rasm). Shuningdek, milliy kompaniyalarning 42% hali iqlim o'zgarishi xavflariga qarshi biron choralar ko'rmagan – bu mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.



Faqat 21% kompaniyalargina issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha aniq strategiyaga ega[1]. E'tiborlisi, mintqa bo'ylab kompaniyalarning aksariyati (baholashlarga ko'ra 67%dan 97% gacha) ESG omillarining ahamiyatini tan oladi, ammo bu xabardorlik hali barcha hollarda real strategik choralar va korxonalar amaliyotiga to'liq tatbiq etilgan emas. Ko'plab korxonalar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga doir ayrim tashabbuslarni boshlagan, ekologik xavflarni hisobga ola boshlagan bo'lsa-da, ularning aksarida tizimli, kompleks yondashuv mavjud emas. Bu holat "bilish va qilish" o'rtasidagi tafovut mavjudligini ko'rsatib, O'zbekiston korxonalari oldida ESG sohasida hali ko'p ishlash zarurligini ta'kidlaydi.



2-rasm. Kompaniyalar ESG yoki barqaror rivojlanish tushunchalaridan qay darajada xabardor? [1]

O'zbekistondagi aksariyat korxonalar ESG hisobotlarini GRI standartlari asosida tayyorlamoqda. Bu shuni anglatadiki, hozirgi kunda ISSB tomonidan ishlab chiqilgan yangi standartlar, ya'ni IFRS S1 va S2 O'zbekistonda hali keng qo'llanilmayapti. "UzAssets" AJ tomonidan qabul qilingan "ESG tamoyillariga muvofiq barqaror rivojlanish bo'yicha yo'l xaritasi"ga 2025-yildan boshlab muvofiq yirik kompaniyalar IFRS S1, S2 standarti bo'yicha hisobotlarni ommaviy e'lon qilishi belgilangan [3][4][17][18].

Tarmoqlar kesimida eng faol ESG hisobotlarini joriy qilayotganlar – energetika, yoqilg'i-sanoati, infratuzilma va moliya sektori tashkilotlaridir. Jumladan, 2024 yilda qator yirik kompaniyalar ilk barqaror rivojlanish hisobotlarini e'lon qildi. Ular orasida "Hududiy elektr tarmoqlari", "Hududgaz ta'minoti", "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zkimyosanoat", "Uzbekistan Airports", "O'zsanoatqurilishbank" kabi davlat ulushi katta subyektlar mavjud [3][4]. Bank-moliya sohasida ham bu yo'nalishda ilk qadamlar kuzatilmoqda. 2023-yildan boshlab "O'zsanoatqurilishbank (SQB)", "Milliy bank (NBU)", "Asaka Bank", "Ipoteka bank", "Xalq banki", "Turon bank" nomoliyaviy hisobotlarni ommaviy e'lon qilishni boshladi. 2024-yil uchun tayyorlangan nomoliyaviy hisobotni "Xalq banki", SQB, "Ipoteka bank", "Kapitalbank" GRI standartiga muvofiq tayyorladilar [9][10].



Kompaniyalar nafaqat nomoliyaviy hisobotlarni ommaviy e'lon qilishni, balki o'z faoliyatlarini xalqaro miqyosda baholash va reytinglarni olish bo'yicha ham faol olib bormoqdalar. Xususan, bu borada "O'zbekgidroenergo" AJ 2023-yilda xalqaro ESG reytingini olgan birinchi O'zbekiston kompaniyasiga aylandi. "Sustainable Fitch" agentligi unga "2" (bu yerda 1 eng yuqori daraja) darajasini berdi [13]. Bu esa korxonaning barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishdagi sa'y-harakatlarining xalqaro e'tirofidir.

Ushbu yutuqdan so'ng boshqa yirik davlat korxonalari ham reyting olish bo'yicha ilk qadamlarni qo'yishni boshlashdi. Masalan, "O'zkimyosanoat" esa 2025-yil boshida S&P Global reyting agentligidan 29 ballik ESG reytingini oldi [14]. Garchi bu baho past bo'lsa-da, reytingning o'ziyoq kompaniyaning shaffoflik va xalqaro standartlarga intilishi yo'lidagi muhim qadami sifatida baholanadi. 2025 yil aprelda Navoiyuran korxonasi Fitch Ratings'ning barqarorlik bo'yicha bo'linmasi tomonidan ESG bo'yicha 3-darajali reytingga (100 balldan 55 ball) loyiq ko'rildi [15]. Yana bir misol – "O'zbektelekom" AK 73 ballik ESG reytingini qo'lga kiritib, Markaziy Osiyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini namoyish etdi [16]. Fitch agentligi "O'zbektelekom" AKning ekologik loyihalarni tatbiq etish, ijtimoiy ahamiyatli dasturlar va shaffof boshqaruv borasidagi izchil harakatlarini yuqori baholagan. Yuqori ESG reytingi esa "O'zbektelekom" AK uchun xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlash hamda "yashil" moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Huquqiy baza va xalqaro standartlarga muvofiqlik

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati korporativ boshqaruvga ESG tamoyillarini joriy etish borasida muhim huquqiy asoslar yaratishni boshladi. Jumladan, 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan Prezident farmoni (PF-158-son)da ekologik barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun milliy maqsadlar belgilandi [6]. Unga muvofiq, 2010 yilga nisbatan 2030 yilga borib YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqarilishini 35% ga qisqartirish, sanoatda energetik samaradorlikni kamida 20% ga oshirish, qayta tiklanuvchi energetika quvvatlarini 15 GVtga yetkazish (mamlakat energetika tizimidagi ulushini 30% dan ortiq qilish) va maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% ga yetkazish kabi maqsadlar qo'yilgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'lidagi qat'iy rejalarini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston 2017-yilda Parij iqlim bitimini ratifikatsiya qilganidan buyon xalqaro majburiyatlarini izchil kuchaytirib kelmoqda. Masalan, 2021-yilda mamlakat o'z milliy iqlim hissasini (NDC) yangilab, issiqxona gazlari chiqarilishini 2030 yilga kelib avval rejalashtirilganidan (10% qisqartirish) uch baravar ko'proq – 35% ga qisqartirish majburiyatini oldi.

Korporativ sektor vakillarini ESG bo'yicha hisobdorligini tartibga solish bo'yicha ham aniq choralar ko'rilmogda. 2024-yil 21-fevraldagi Prezident farmoni (PF-37-son)ga binoan, davlat ulushi 50% va undan yuqori bo'lgan kompaniyalar 2024-yil 1-iyuldan boshlab har yili jamoatchilikka korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) va ESG bo'yicha yillik hisobot taqdim etishi majburiy qilib belgilandi [7]. Bu talablardan maqsad davlat ishtirokidagi yirik tashkilotlarda oshkoralikni ta'minlash va korporativ boshqaruvni takomillashtirish edi. Keyinchalik, 2025-yil 30-yanvar kuni qabul qilingan Prezident farmoni (PF-16-son) esa ESG sohasida yanada keng ko'lamli o'zgarishlarni boshlab berdi.



Unga ko'ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab barcha respublika ijroiya hokimiyati organlari va davlat ulushi 50%dan ortiq bo'lgan korxonalar ISSB tomonidan ishlab chiqilgan barqarorlik hisobotlari standartlariga (IFRS S1, S2) muvofiq hisobot yuritishga o'tishi shart qilib belgilandi[8]. Shuningdek, ushbu farmonga muvofiq 2025-yil oxiriga qadar:

- yirik davlat kompaniyalari uchun ESG tamoyillariga asoslangan ichki korporativ dasturlar ishlab chiqilishi;
- kamida 5 ta yirik sanoat korxonasida milliy darajadagi birinchi ESG hisobotlarini tayyorlab, e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yilishi;
- ayrim yirik korxonalarga xalqaro ESG reytinglar olib berish (jumladan, "O'zbekneftgaz", Navoiy kon-metallurgiya kombinat, Olmaliq KMK, "Uzbekistan Airways", "Uzbekistan Airports" kabi kompaniyalar) choralari belgilandi.

Mazkur normativ hujjatlar O'zbekistonning ESG bo'yicha xalqaro standartlarga moslashish va davlat sektorida barqarorlik hisobdorligini oshirish yo'lida qat'iyat ko'rsatayotganini bildiradi. Darhaqiqat, yuqoridagi talablar amalda 2025-yildan boshlab yirik korxonalarni ESG bo'yicha hisobot berishga majbur qilmoqda. Xususan, davlat soliq organlari ro'yxatidagi eng yirik soliq to'lovchi korxonalar (ular orasida aksariyat davlat shirkatlari va bir qator xususiy kompaniyalar ham bor) 2025-yil yakuni bo'yicha o'z ESG faoliyati va ko'rsatkichlarini umumlashtirgan yillik hisobotni jamoatchilikka e'lon qilishi lozim bo'ladi. Natijada, 2025-yil davomida ko'plab kompaniyalar ilk bor o'zlarining barqarorlik faoliyati haqida ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va mustaqil auditorlar ko'magida tasdiqlab, nashr etish jarayoniga kirishdi. Bu esa o'z navbatida korxonalardan ichki resurs va salohiyatni safarbar qilishni, biznes-rejalarga ESG maqsad va o'lchovlarini integratsiya qilishni, malakali mutaxassis va maslahatchilarni jalb etishni talab etadi.

Hukumat korxonalarni xalqaro standartlarga mos ravishda hisobot berishga o'tishda yaqindan ko'maklashmoqda. Moliyaviy hisoblarda xalqaro standartlar (IFRS) bosqichma-bosqich joriy qilinishi bilan birga, endilikda no-moliyaviy hisobotlarda ham GRI, ISSB va boshqa standartlarga moslashuv rag'batlantirilmoqda. Masalan, yuqorida ta'kidlanganidek, Xalq Banki o'z ESG hisobotida ISSB va GRI prinsiplari asosida ishlashni boshladi, O'zbekneftgaz va Uztransgaz esa GRI standartlarini qo'llagan holda hisobot tuzmoqda[12]. 2024-yilda "UzAssets" AJ tomonidan yirik davlat korxonalari uchun barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish bo'yicha maxsus "ESG yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va ushbu yo'nalishdagi tavsiyalarini yangiladi[3][4]. Ushbu hujjatga muvofiq, 2025–2026 yillarda davlat kompaniyalari Yevropa Barqarorlik Hisoboti Standartlari (ESRS) talablariga asosan "ikkilamchi muhimlik" (double materiality) tahlilini o'tkazishi, ya'ni o'z faoliyatining atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini hamda tashqi iqlim va ijtimoiy omillarning kompaniya moliyaviy holatiga ta'sirini baholab borishi lozimligi belgilandi. Bunday yondashuv korporativ boshqaruvga Yevropa tajribasini bosqichma-bosqich singdirib, hisobotlarni xalqaro investorlar uchun tushunarli formatda tayyorlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagi huquqiy bazaning shakllantirilishi O'zbekistonda ESG hisobdorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan kompleks choradir. Davlat darajasida belgilangan maqsad va topshiriqlar ("Yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi, milliy ESG hisobotlarini joriy qilish, korxonalarga reytinglar olib berish va hokazo) korporativ



sektorni “yashil” transformatsiyaga undamoqda. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilganidek, mamlakatning barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga erishishda korxonalarning ESG hisobotlari muhim vosita bo'ladi – zero, ular har bir yirik xo'jalik yurituvchi subyekt va tarmoq bo'yicha uglerod izini, ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlarini o'lchash va boshqarishga yordam beradi.

Davlat va xususiy sektor: solishtirma tahlil

O'zbekistonning korporativ sektorida davlat ulushi mavjud kompaniyalar ESG hisobotlarini joriy etishda hozircha yetakchilik qilmoqda, xususiy sektor esa nisbatan sust ishtirok etmoqda. Bunga bir necha omillar sabab bo'lmoqda:

Tartibga soluvchi talablardagi farq

Yuqorida ta'kidlanganidek, 2024–2025 yillardan boshlab davlat sektori korxonalari uchun barqarorlik bo'yicha hisobot taqdim etish majburiy talabga aylandi. Ya'ni davlat kompaniyalari “yuqoridan pastga” tartibda bu mas'uliyatni yuridik jihatdan bajarishi shart. Xususiy sektorda esa hozircha bevosita majburiyatlar yo'q – faqat ayrim holatlarda, masalan, xorijiy fond birjasida ro'yxatdan o'tish yoki xalqaro kreditorlar mablag'larini jalb qilish jarayonida ular sheriklar talabi bilan ESG ma'lumotlarini oshkor qilishga majbur bo'lishi mumkin. Shunday ekan, davlat shirkati tegishli qarorlar ijrosi sifatida ESG hisobotini chiqarayotgan bo'lsa, xususiy kompaniyalarda hozircha bunday tashqi turtki kam. Natijada, bugungi kunda e'lon qilingan ESG hisobotlarining aksariyati aynan davlat ishtirokidagi subyektlarga to'g'ri kelmoqda.

Resurs va imkoniyatlar

Yirik davlat kompaniyalari (energetika, sanoat, transport va hokazo) moliyaviy, texnik va kadrlar resurslari nuqtai nazaridan ESG hisobotini tayyorlashda ko'proq imkonga ega. Ular xalqaro konsalting xizmatlarini jalb qilib, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'lchash tizimlarini joriy qilmoqda, hisobotlarni malakali ekspertlar yordamida tayyorlab, auditorlik tekshiruvidan o'tkazmoqda. Xususiy sektordagi o'rta va kichik biznes subyektlari uchun esa bunday hisobotlar qo'shimcha xarajat va yuk sifatida ko'rib, yetarli resurs ajratishga tayyor emasligi kuzatilmoqda. Shu bois, hozircha davlat sektori korxonalari o'z faoliyatiga oid eng muhim ESG ko'rsatkichlarini jamlay oladigan va tahlil qila oladigan institutsional salohiyatni shakllantirib bormoqda. Masalan, “O'zbekneftgaz” AJ o'zining 2023-yil uchun hisobotida 93 ta ESG indikatorni to'liq yoritgan bo'lsa [11], aksariyat xususiy kompaniyalarda hozircha bunday ko'lamni kutish qiyin. Biroq kelgusida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ma'lumot yig'ish tizimlari rivojlanishi tufayli kichik biznes uchun ham ESG ko'rsatkichlarini kuzatish va hisobot yuritish ancha yengillashishi mumkin.

Xalqaro bozorlarga chiqishga bo'lgan intilish

Davlat kompaniyalari ko'pincha yirik investitsiya loyihalari yoki xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladi. Demak, ular uchun ESG hisobotini e'lon qilish nafaqat investorlarning rasmiy talablarini bajarish, balki xorijiy bozorda ijobiy imij yaratish vositasi hamdir. Masalan, O'zbekiston hukumati 2021-yilda ilk suveren ESG hisobotini (“Progress in Uzbekistan”) chop etib [19], mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida erishilgan yutuqlarni butunjahon investorlarga namoyish qildi. Xuddi shunday, yirik davlat shirkatlari ham



xalqaro moliya bozorlarida o'zlarini ishonchli va mas'uliyatli hamkor sifatida ko'rsatishga intilmoqda – masalan, yuqorida tilga o'tilgan "O'zbektelekom" yoki "O'zkimyosanoat" kabi kompaniyalar xalqaro reytinglar va hisobotlar orqali o'z barqarorlik darajasini namoyish qilmoqda. Xususiyl sektorda esa faqat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yoki eksport hajmi yuqori bo'lgan kompaniyalargina hozircha bunday intilishga ega. Masalan, yirik to'qimachilik sohasidagi eksport qiluvchilar Yevropa buyurtmachilari talabi bilan ekologik sertifikatlariga ega bo'lishga va ishlab chiqarishni "yashil" standartlarga moslashtirishga harakat qilmoqda. Biroq global ta'minot zanjirlarining barqarorlikka e'tibori oshishi tufayli, yaqin yillarda xorijiy bozorlarga intiluvchi xususiyl kompaniyalar ham ESG tamoyillarini joriy etishga majbur bo'lib borishi kutilmoqda.

Yuqoridagi omillar tufayli, ayni paytda davlat sektori O'zbekistonda ESG kun tartibini ilgari surishda birlamchi "lokomotiv" vazifasini bajarmoqda. Davlat korxonalari orttirayotgan tajriba va joriy etayotgan amaliyotlar asta-sekin xususiyl sektorga ham o'tmoqda. Bu jarayonni tezlashtirish maqsadida davlat tomonidan xususiyl kompaniyalarni rag'batlantiruvchi qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish, tijorat banklari orqali kreditlashda preferensiyalar taqdim etish kabi choralar xususiyl sektorda ham barqarorlik tashabbuslarini kuchaytirishi mumkin.


Umuman olganda, yaqin kelajakda iqtisodiyotda xususiyl sektor ulushining oshishi va liberallashtirish jarayonida aynan xususiyl korxonalar ESG bo'yicha ilg'or tashabbuslarni qabul qilish va ilgari surishga o'tishi kutilmoqda. Faqat davlat va xususiyl sektor birgalikda ESG tamoyillarini keng tatbiq qilgan holda ishlaganidagina, milliy barqaror rivojlanish va investitsion jozibadorlik to'liq ta'minlanishi mumkin.

Rivojlanish istiqbollari va xulosalar

Yuqoridagi tahlil ko'rsatadiki, O'zbekistonda ESG bo'yicha huquqiy asoslar shakllangan va dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, korporativ amaliyotda hali takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Yaqin yillarda davlat sektori misolida boshlangan ESG hisobdorligi butun iqtisodiyot miqyosida kengayishi kutilmoqda. Xususan, 2026-yilga borib ISSB (IFRS S1 va S2) standartlariga to'liq o'tish rejasi amalga oshirilsa, bu davlat korxonalari bilan bir qatorda yirik xususiyl kompaniyalardan ham xalqaro talablar darajasida ma'lumotlar oshkor etilishini talab qiladi. Natijada, mamlakat bo'ylab ESG hisobdorligining sifati va qamrovi oshib, O'zbekiston korxonalari global barqarorlik reytinglari va indekslarida munosib o'rin egallashi mumkin.

Biroq, kutilayotgan yutuqlarga erishish uchun hozirda mavjud bo'shliqlarni to'ldirish va tizimni mustahkamlash zarur. PwC tadqiqoti mintaqada ESG borasidagi xabardorlik va samarali joriy etish o'rtasida sezilarli tafovut borligini aniqlagan – ya'ni, korxonalar ekologik va ijtimoiy muammolarni tushunishgan bo'lsa-da, ularni hal etishga qaratilgan aniq strategiyalar va amaliy harakatlar sust. Bu holatni yengish uchun kompaniyalarda ESG boshqaruv tizimini kuchaytirish, maxsus mutaxassislarni tayyorlash va ichki jarayonlarni takomillashtirish talab etiladi (3-rasm).

Quyida O'zbekiston korxonalari va manfaatdor tomonlari uchun ESG yo'nalishida kelgusida ustuvor e'tibor qaratish lozim bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar keltirilgan:



3-rasm. Kompaniyalar tasdiqlangan ESG strategiyasiga egami? [1]

Strategiya va tizimlarni takomillashtirish

Kompaniyalar ESG bo'yicha aniq, o'lchab bo'ladigan va samarali strategiyalar ishlab chiqib, ularni korporativ boshqaruvga integratsiya qilishi lozim. Buning uchun ESG xavf va imkoniyatlarini baholaydigan ichki tizimlarni joriy etish, barcha bo'lim va darajalar ishtirokini ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Tashkiliy tuzilmani kuchaytirish

Korxona miqyosida maxsus ESG bo'limlari yoki kuzatuv kengashi qoshida ESG komitetlarini tuzish orqali bu yo'nalishda mas'uliyatni aniq taqsimlash va yuqori darajada nazorat o'rnatish maqsadga muvofiq. Bu ESG tashabbuslarini boshqarishda tizimlilikni ta'minlab, rahbariyat e'tiborini barqarorlik maqsadlariga qaratishga xizmat qiladi.

Hisobotlarning shaffofligi va sifatini oshirish

Korxonalar ESG hisobotlarini faqat majburiy talablarni bajarish uchun emas, balki o'z barqarorlik strategiyalarining natijadorligini to'liq yorituvchi hujjat sifatida tayyorlashi kerak. Hisobotlarda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari ham ochiq bayon etilishi, keltirilgan ma'lumotlar esa mustaqil auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi lozim. Bu manfaatdor tomonlar ishonchini oshiradi va "yashil bo'yoq" (greenwashing)ning oldini oladi.

Ijtimoiy omillar va huquqlar

Ayni paytgacha korxonalarda uncha e'tibor berilmagan ijtimoiy jihatlar – xodimlar tarkibining rang-barangligi va inklyuzivligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, jamiyat bilan aloqalarni kuchaytirish – kelgusi ESG kun tartibida muhim o'rin tutishi kerak. Davlat hamda xususiy kompaniyalar inson huquqlari, mehnat va investorlar huquqlarini himoya qilish masalalarini ham ESG dasturlariga qo'shib, bu borada aniq siyosat va dasturlar qabul qilishi lozim.

Ekologik majburiyatlar bo'yicha aniq rejalar



Eng muhim ekologik masalalar – iqlim o'zgarishi xavflarini boshqarish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkorligini oshirish, suv resurslarini samarali boshqarish kabi yo'nalishlarda aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilanishi va ularni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi zarur. Bu rejalar kompaniyalarning uzoq muddatli investitsiya dasturlari va innovatsion loyihalari bilan bog'lanib, bajarilishi muntazam monitoring qilib borilishi kerak.

Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekistonda ESG amaliyotlari haqiqiy natijadorlik va samaradorlik berishi kutiladi. Davlat tomonidan joriy etilgan qat'iy talablar xususiy sektor manfaatlari va bozor talablari bilan uyg'unlashgan holda, yaqin yillarda O'zbekiston kompaniyalari xalqaro miqyosda raqobatbardosh, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli biznes subyektlari sifatida maydonga chiqishiga ishonch bildirish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda ESG hisobotdorligi endi yo'lga qo'yilayotgan bo'lsa-da, hukumatning tizimli yondashuvi va jahon tendensiyalari ushbu jarayonni jadallashtirmoqda. Davlat kompaniyalari majburiy talablar tufayli tezda ilg'or tajriba to'plab, xususiy sektor uchun namuna yaratmoqda. Investorlar va davlat organlari uchun esa bu hisobotlar muhim axborot manbaiga aylanmoqda – ular orqali iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida ekologik va ijtimoiy xatarlar yuqori ekani, qaysi kompaniyalar boshqaruvining shaffofligi bilan ajralib turishini aniqlash imkoni paydo bo'ladi.

Eng asosiysi, ESG tamoyillarining izchil tatbiqi nafaqat ekologik va ijtimoiy foyda keltiradi, balki xalqaro investitsiyalar oqimini kuchaytiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va umuman olganda, "yashil" hamda inklyuziv iqtisodiyot sari o'tishni tezlashtiradi. Uzoq muddatda esa bu O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini yaxshilab, aholi farovonligini oshirish va kelgusi avlodlar uchun sog'lom ijtimoiy-iqtisodiy muhit barpo etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ESG hisobotlari faqat hisobotlilik majburiyatigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning yangi iqtisodiy modelga – barqaror va inklyuziv taraqqiyot modeliga o'tish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. PricewaterhouseCoopers (PwC). (2024, iyul). *ESG Awareness: Ўзбекистан*. PwC Uzbekistan.
2. KPMG Valuation & Consulting LLC. (2024, mart). *ESG: Роль устойчивого развития в трансформации бизнеса*. KPMG Uzbekistan.
3. UzAssets AJ. (2024, 5 mart). *Дорожная карта устойчивого развития в соответствии с принципами ESG (ESG Roadmap)*. UzAssets.
4. UzAssets AJ. (2025, 18 mart). *ESG-отчетность госкомпаний Узбекистана*. UzAssets.
5. KPMG Audit (Uzbekistan). (2025). *Раскрытие нефинансовой отчетности компаниями UzAssets*. KPMG.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 11 sentabr). *"O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida* (PF-158-son Farmon). Lex.uz.



7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 21 fevral). *"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida* (PF-37-son Farmon). Lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 30 yanvar). *"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va 'yashil iqtisodiyot' yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida* (PF-16-son Farmon). Lex.uz.
9. Xalq Bank. (2024). *2023 ESG Report*. ATB "Xalq banki". (Veb-sahifa va havola: ESG bo'limi).
10. Kapitalbank. (2024). *Sustainability Report 2024*. JSCB Kapitalbank.
11. Uzbekneftegaz JSC. (2023). *Sustainability Report 2022: Caring About Future Generations*. Uzbekneftegaz.
12. Uztransgaz JSC. (2022). *Sustainability Report 2022*. Uztransgaz.
13. "O'zbekgidroenergo" AJ. (2023, 19 dekabr). *O'zbekistonda birinchi bo'lib ESG reytingi olindi*. Yangi O'zbekiston (yuz.uz).
14. UzKimyoSanoat JSC. (2025, 20 fevral). *S&P Global tomonidan ESG bahosi — 29 ball*. UzDaily.
15. Navoiyuran JSC. (2025, 12 aprel). *Sustainable Fitch tomonidan ESG reytingi: daraja "3", 55 ball*. UzDaily; Yuz.uz.
16. O'zbektelekom AJ. (2025, 17 sentabr). *Sustainable Fitch Uztelecom'ga 73 ball ESG bahosini berdi*. Kun.uz; Sustainable Fitch.
17. IFRS Foundation (ISSB). (2023, iyun). *IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information*. IFRS Foundation.
18. IFRS Foundation (ISSB). (2023, iyun). *IFRS S2: Climate-related Disclosures*. IFRS Foundation.
19. Republic of Uzbekistan. (2020). *Progress in Uzbekistan: Environment, Social and Governance Report 2020*.
20. Kursiv.media maqolasi: *"CSRD va O'zbekiston: Yevropa standartlarining biznesga ta'siri"* (2025)